

## FANDA YARATILGAN INNOVATSIYALAR: TAJRIBA VA YUTUQ

**O‘tkirbekova Muattaroy Oybek qizi**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi

O‘zbekiston Milliy universiteti.

Email: [otkirbekovamuattar@gmail.com](mailto:otkirbekovamuattar@gmail.com)

**Annotation:** Innovation (English. Innovations-introduced novelty, invention) - 1) funds spent on the economy to ensure the replacement of technology and technology generations; 2) innovations in the fields of technology, technology, management and labor organization based on best practices of scientific and technical achievements, as well as their application in various fields and spheres of activity. and about his achievements. As time progresses, along with his inventions and experiments, his achievements are also increasing. I found it necessary to tell you some of them.

**Keywords:** Created innovations, experience and achievements, exchange of technologies, cooperation with foreign countries.

**Аннотация:** Инновации (англ. innovations внесена новинка, изобретение) - 1) средства, расходуемые в экономике на обеспечение замены техники и технологических поколений; 2) нововведения в области техники, технологии, управления и организации труда, основанные на передовом опыте научно-технических достижений, а также их применении в различных областях и сферах деятельности и о его достижениях. По ходу времени вместе с его изобретением и эксперименты, возрастают и его достижения, о некоторых из них я счёл необходимым вам рассказать.

**Ключевые слова:** Создаваемые инновации, опыт и достижения, обмен технологиями, сотрудничество с зарубежными странами.

**Annotatsiya:** Innovatsiya (inglizcha.innovations-kiritilgan yangilik,ixtiro) - 1)texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta‘minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag‘lar; 2)ilmiy-texnika yutuqlari ilg‘or tajribalarga asoslangan texnika,texnologiya,boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar,shuningdek,ularning turli sohalar va faoliyat doiralari qo‘llanilishi.Ushbu maqola xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda yaratilgan turli fan innovatsiyalari,ijobiy yakunlangan tajriba va erishgan yutuqlari haqidadir.Zamon rivojlangani sayin undagi ixtiro,tajribalar bilan bir qatorda erishgan yutuqlari ham ko‘paymoqda.Men sizlarga ulardan bir nechtasini aytib bermoqlikni o‘zimga lozim deb topdim.

**Kalit so‘zlar:** Yaratilgan innovatsiyalar, tajriba va yutuqlar, texnologiyalar almashinuvi, xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik.

**Tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar:** Tadqiqotning ob‘ekti sifatida jahonda rivojlangan va shiddat bilan rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda allaqachon tasdiqlanib o‘z yutuqlariga erishgan innovatsiyalarni fanga tegishli sohalarida qo‘llanilishi yoritib berilgan.Tadqiqot mavzusini yoritishda misollar keltirish,taqqoslash ka‘bi uslublardan foydalanilgan.

**Olingan natijalar va ularning tahlili:** Davlatimiz rahbari Mirziyoyev Shavkat Miromonovichning 2021-yil 1- apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi farmoniga asosan, iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan tumanni innovatsion hududga aylantirish vazifasi qo'yilgan edi. Habarlarga ko'ra, yurtimizdagi 13 ta tuman ana shunday hududga aylantirib ulgurilgan. Bunday yondashuv innovatsiyalarni olis hududlardagi aholiga yetkazish hamda mahalliy olimlar yaratgan ishlanmalar orqali odamlarning og'irini yengil qilishda yaxshi samara bermoqda. Ayni paytda yoshlarning yangi texnologiyalarga bo'lgan qiziqishi ortib, ularni bugungi kun uchun dolzarb loyihalar ustida ishlashga undayapti. Buxoro viloyatining Romitan tumanini innovatsion hududga aylantirish belgilangan bo'lib, dastur doirasida qator yangi loyihalar ishlab chiqarishga tatbiq etilmoqda. Bugungi kunda, Romitan innovatsion hududida umumiy qiymati 10,9 milliard so'm bo'lgan jami 15 ta innovatsion loyiha amalga oshirilmoqda, – deydi Buxoro viloyati Innovatsion rivojlanish hududiy boshqarmasi boshlig'i Azamat Naimov. Shundan 10 ta loyiha tijoratlashtirilib, ishlab chiqarishga tatbiq etildi. Shuni mamnuniyat bilan aytish kerakki, innovatsion texnologiyalarga bo'lgan qiziqishni qo'llab-quvvatlash natijasida yosh olimlar safi kundan kunga, yildan yilga yanada ko'payib bormoqda. Biz yosh Slimlandia izlanuvchanlik, shiddatlilik, taslim bo'lmaslikni ko'rib xursand bo'lamiz. Yangi g'oyalar ilm-fan, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va ekologiyadagi yechimini kutayotgan muammolarni bartaraf etishda ham yaxshi natija beradi.

Bugungi zamonga kelib ixtirolar, nanotexnologiyalar barcha sohalarni qamrab olmoqda. Ular shu darajada jadallashganki, biriga ko'nikib ulgurmasimizdan boshqa yangi turi paydo bo'lmoqda. Bu yaxshi, albatta. Innovatsiyalar qaysi sohaga qaratilsa, o'sha sohaning rivojini kuchayotganiga guvoh bo'layapmiz.

Bugungi kunga kelib tibbiyotga oid yangi loyihalar ham jadal rivojlanib kelmoqda. Tibbiyotda yangi loyihalar kasalliklarning oldini olish, erta aniqlash, davolashning eng samarali usullarini bizga tadqiq etmoqda. Bunga misol tariqasida Buxoro viloyatida yashovchi Madinabonu Muhammedovani o'rnatqilib olsak arziydi. Madinabonu Muhammedova o'z halqining sog'lig'i uchun qayg'urib mahsus poyabzal ixtiro etgan. To'g'ri tanlangan profilaktik poyabzal oyoq gangrenasining oldini olib, majruhlik foizini kamaytiradi - deydi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti Madinabonu Muhammedova. Shuning uchun bemorlar oyog'idagi diabetik patologiya boshlang'ich darajasining jismoniy va biomexanik xossalarini tadqiq qilish, tibbiy-texnik talablarga ko'ra maqbul profilaktik poyabzal konstruksiyasini ishlab chiqish texnologiyasi dolzarbdir. Taklif qilinayotgan poyabzal surunkali kechadigan yarali jarohlarni 1 yilda 45– 50 foizgacha kamaytiradi. Muallif taklif etayotgan yangi konstruksiyali profilaktik poyabzalda maxsus patak mavjud bo'lib, bemor tovoning alohida zonalariga tushadigan bosimga ko'ra har xil o'lchamdagi chuqurliklarga ega. Yuzasi bo'rtma romb shakliga ega bo'lgan mazkur qism ishqalanish va yallig'lanishning oldini oladi. Shuningdek, bu oyoq kiyimini kiyish va yechish ham juda qulay.

Qandli diabet jahonda eng keng tarqalgan surunkali kasallik bo'lib, dunyo miqyosida yiliga 5-7 foizga ko'payib bormoqda. Diabetga chalingan bemorlarning ko'pchiligi oyoqlarida paydo bo'ladigan yaralardan aziyat chekadi. Ularda oddiy yallig'lanishlar ham jiddiy yaraga aylanib, hatto gangrenagacha borish ehtimoli yuqori. Bunday vaziyatlarda oyoq parvarishi hamda to'g'ri tanlangan poyabzal asosiy profilaktika vositasi hisoblanadi.

## Xulosa

Albatta, yurtimizdagi yosh olimlarning qilayotgan ishlari va erishayotgan yutuqlaridan ko'zlarimizning quvonmasligining ilojisi yo'q. Ular yaratayotgan yangi innovatsiyalar bilan hatto xorijiy mamlakatlar olimlari ham qiziqish bildirishga ulgurishgan. Kerak bo'lsa ilm-fandagi yangi innovatsiyalarimiz bilan qo'shni mamlakatlar bilan bimalol raqobatlasha olamiz. Hozirgi kunga kelib yosh olimlar uchun bir qancha imtiyozlar, sovrin va sovg'alar joriy qilingan. Yosh olimlarga e'tibor kuchaygan, bu albatta juda quvonarli holatdir. Ularning yangi ixtirolarining rejaları tegishli tashkilotlar tomonidan o'rganilib, o'rgatilib, kamchiliklari to'g'irlanib, davlat tomonidan barcha xarajatlari qoplab berilmoqda. Biz kabi yoshlarga yaratilib berilayotgan bunday imtiyozlardan unumli foydalanib qolmoqligimiz zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://yuz.uz/uz/news/ilm-fan-innovatsion-taraqqiyot-asosi?view=ozbekiston-talim-tizimi-yangi-bosqichga-qadam-qoydi> Yangi O'zbekiston
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Innovatsiya>
3. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 452-459.
4. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
5. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – C. 3008-3020.
6. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – T. 9. – №. 1. – C. 4943-4952.
7. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(S1), 573-578.
8. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 187-190.
9. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
10. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection in French Phraseology." Journal of Positive School Psychology (2022): 2883-2889.
11. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love". Конференции. 2021.
12. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of "Historical Memory" Within French and Uzbek Phraseology." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
13. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into "Historical Memory" in French and Uzbek

- Linguistic Traditions." American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
14. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing "Historical Memory" In Uzbek and French Languages." American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
  15. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." Best Journal of Innovation in Science, Research and Development 2.11 (2023): 490-492.
  16. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." Академические исследования в современной науке 2.17 (2023): 165-169.
  17. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." Academic research in educational sciences 3.5 (2022): 1176-1182.
  18. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 879-884.
  19. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023,[1/4] (2023).